# Yurtimiz osmonida bolid kuzatildi

Kecha yurtimiz osmonida yorug’ osmon jismi - meteoritning yerga tushishi kuzatildi va u aks etgan tasvirlar ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqaldi.

Ma’lumki, har kuni Yer sirtiga 10 tonnadan ortiq aksariyati millimetr o’lchamdagi kichik toshlar - meteorit parchalari tushadi va ular osmonda havo bilan ishqalanish tufayli yorug’ iz qoldiradi. Agar meteoritning o’lchamlari bir santimetr va undan katta bo’lsa, undan juda yorug’ va tutunli iz qoladi. Yerdagi kuzatuvchi tunning kunduzdek bir lahzaga yorishib ketishini kuzatadi. Bu esa Yer atmosferasiga kirib yonib ketgan meteor — bolid hisoblanadi.

6-aprel, Toshkent vaqti bilan soat 22:03 atrofida kuzatilgan hodisa aynan shunday bolid ekanligidan dalolat beradi.

Meteoritlar bizning Quyosh tizimimizga tegishli kometa va asteroidlarning qoldiq yoki bo’laklari hisoblanadi. Quyosh tizimidagi millionlab orbitalarda kometa va asteroidlar mavjud hamda sayyoramiz orbitasi o’sha orbitalar bilan kesishganda bu qoldiqlarning meteor, bolid va meteorit ko’rinishida sayyoramiz atmosferasiga kirib kelishini ko’rishimiz mumkin bo’ladi. Umuman olganda, Yer atmosferasiga har kuni bir necha o’nlab tonna shunday jismlar tushadi. Agar bu jism o’zidan yorqin, ingicha iz qoldirsa u meteor deb nomlanadi. Meteorlarning kattaligi odatda bir necha millimetrdan oshmaydi va atmosferada to’liq bug’lanib ketadi.

Agar jism bir necha yoki o’nlab santimetrlar kattalikdagi o’lchamga ega bo’lsa atmosferada kuchli qizib portlaydi va juda yorqin chaqnashga sabab bo’ladi, osmonda o’zidan yorqin plazmali iz qoldiradi. Bunday jismlar bolid deb nomlanadi.

Agar bolid yetarlicha katta bo’lsa va kimyoviy tarkibida metallar ulushi ko’p bo’lsa bolid parchalarinig ayrimlari Yer sirtiga qadar yetib kelishi mumkin. Ammo buning uchun atmosferaga kirgan jismning o’lchamlari anchagina katta bo’lishi lozim. Meteoritli bolidga 2013-yil 15-fevraldagi Chelyabinsk meteoritini misol qilib keltirish mumkin.

Yurtimizda kuzatilgan jismning ham biror qoldiqlari topilgani haqida esa ma’lumotlar mavjud emas va uni oddiy, qoldiqsiz bolid deb taxmin qilsa bo’ladi.

***O’zR FA Astronomiya instituti kichik ilmiy xodimi,***

***Kamoliddin Ergashev.***